

Abdupattayev Mumin Mirzo Murodjon o'g'li
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: mirzo21@umail.uz
Tel: +998998409293
ORCID: 0000-0002-4695-6433

ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSIDA DINIY BAG'RIKENGLIK

Annotatsiya: O'rta asrlar Sharq Renessansi davri mutafakkiri, qomusiy olim, fundamental fanlar asoschisi hisoblangan Abu Rayhon Beruniyning ko'plab ilmiy meroslari bugungi kunga qadar yetib kelgan. Ushbu kitoblarda fanning turli sohalari – matematika, astronomiya, geografiya, tarix va dinshunoslikka oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Mazkur maqolada Abu Rayhon Beruniyning “al-Osor al-boqiya”, “Tahqiq ma lil-Hind”, “Qonuni Mas'udiy” va “at-Ta'fhim” kabi asarlarida turli dinlar va ta'limotlarga bo'lgan bag'rikenglik masalalari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Abu Rayhon Beruniy, yahudiylik, xristianlik, zardushtiylik, bag'rikenglik, xolislik, Injil, Tavrot.

Абдупаттаев Мумин Мирзо Муроджон угли
Старший преподаватель Международной академии исламоведения
Узбекистана, доктор философии (PhD) по истории
РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ
АБУ РАЙХАНА БИРУНИ

Аннотация: Абу Райхан Бируни — мыслитель эпохи средневекового Восточного Ренессанса, энциклопедист и один из основателей фундаментальных наук. Многие из его научных трудов сохранились до наших дней. В этих трудах содержатся ценные сведения по различным частям науки — математике, астрономии, географии, истории и религиоведению. В данной статье рассматриваются вопросы религиозной терпимости, освещённые в таких произведениях Абу Райхана Бируни, как «аль-Асар аль-бакия», «Тахкик ма ли-ль-Хинд», «Канун Мас'уди» и «ат-Тафхим», где анализируются различные религии и учения.

Ключевые слова: Абу Райхан Бируни, иудаизм, христианство, зороастризм, толерантность, объективность, Евангелие, Тора.

Abdupattayev Mumin Mirzo Murodjon ogli
Senior Lecturer at the International Academy of Islamic Studies of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy (PhD) in historical sciences
RELIGIOUS TOLERANCE IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF
ABU RAYHAN BIRUNI

Annotation: *The scientific legacy of Abu Rayhan al-Biruni, a philosopher of the Eastern Renaissance period, an encyclopedic scholar, and the founder of fundamental sciences, has been preserved and continues to reach us to this day. These books contain valuable information on various fields of science, including mathematics, astronomy, geography, history, and religious studies. This article discusses the issues of religious tolerance addressed in works by Abu Rayhan al-Biruni, such as “al-Athar al-Baqiya,” “Tahqiq ma lil-Hind,” “Qanun al-Mas’udi,” and “at-Tafhim,” in which he explores various religions and doctrines.*

Keywords: *Abu Rayhan Biruni, Judaism, Christianity, Zoroastrianism, tolerance, objectivity, Gospel, Torah.*

Kirish

Bugun O‘zbekiston Respublikasida turli konfessiya va e’tiqod vakillari bir-biri bilan yonma-yon, tinch-totuv yashab kelmoqda. Jamiyatda tinchlikni saqlash, o‘zaro totuvlikni ta’minlash uchun turli e’tiqod vakillari vatan taraqqiyoti yo‘lida birga harakat qilishlari zarur. Ularning o‘zaro inoq yashashlarida esa diniy bag‘rikenglik muhim ahamiyat kasb etadi. Diniy bag‘rikenglik turli millat va elatga mansublarning, turli din va e’tiqod vakillarining bir zamin, yagona Vatan, bir yurt, bir hududda ezgu g‘oya yo‘lida hamkor, hamfikir va hamjihat bo‘lib yashashni anglatadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning, “Bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda”, [1] degan fikrlari buning isbotidir.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro do‘stlikni qaror toptirish, turli e’tiqod va dunyoqarash sohiblarining birgalikda bahamjihat yashashlari uchun diniy bag‘rikenglik nihoyatda zarur. Bu borada ajdodlarimiz qoldirib ketgan meros katta ahamiyat kasb etadi. Abu Rahyon Beruniy asarlarida ko‘tarilgan bag‘rikenglik masalalari XXI asrda

ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Adabiyotlar tahlili

Abu Rayhon Beruniy hayoti va ilmiy faoliyati yuzasidan jahom va mintaqada ko'plar tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tadqiqotlarning aksariyati buyuk mutafakkirning aniq fanlarga qo'shgan hissasiga bag'ishlangan. Allomaning dinlar tarixi va bag'rikenglikka oid qarashlari ham turli tadqiqotlarning markazida turgan. Xususan, G'arb olimlaridan Jorj Sartonning "Introduction to the history of Science" (1927), Artur Jeffrining "Al-Biruni's contribution to comparative religion" (1952), Jak Varderburgning "Muslims and Others: Relations in Context" (1982), Gunindar Kaurning "Al-Biruni: An early student of comparative religion" (1982) nomli asarlarida Beruniy dinshunos sifatida talqin qilingan va dinlarni o'rganishdagi ilmiy obyektivligi yuqori baholangan. Rus sharqshunosi Ignatiy Yuliyanovich Krachkovskiy Abu Rayhon Beruniyning geografiya sohasiga qo'shgan hissani to'g'risida "Ал-Бируни и географы XI века на Востоке" (1957) nomli kitob yozgan. Shuningdek, yana birr us sharqshunos olimi Aleksandr Markovich Belenitskiy o'zining "Абу Рейхан ибн Ахмед ал-Бируни" (1963) nomli kitobida olimning dinshunoslikka oid qarashlarini tahlil qilgan. Sobiq ittifoq davrida, aniqrog'i 1965-1968-yillar oralig'ida allomaning "al-Osor al-boqiya", "Hindiston", "Qonuni Mas'udiy" kabi asarlari sharqshunos olim Abdulfattoh Rasulov tomonidan o'zbek tiliga ilk marta tarjima qilingan.

Mustaqillik yillarida Abu Rayhon Beruniyning dinlarga oid asarlarini tadqiq etish yangi bosqichga ko'tarildi. Tadqiqotchi T.N.Ahmedovning "Beruniy asarlarida din muammolari" (1994) nomli ilmiy izlanishida olimning dinlarga munosabatlarini va bag'rikengligi tahlil qilingan. H.Yo'ldoshxo'jayevning

“O‘zbekistonda dinshunoslik fanining rivoji: muammo va vazifalar” (2010) nomli tadqiqotida Beruniy asarlarini dinshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish hamda bugungi davlatning din sohasida olib borayotgan siyosatini to‘g‘ri tushinishda dolzarb ekani qayd etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolani yozishda tarixiylik, tadrijiylik, mantiqiylik, sintez, qiyosiy tahlil, pragmatik va kontekstual tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Jahon ilm-fani rivojiga benihoya ko‘p hissa qo‘shgan olimlardan biri, I Sharq Uyg‘onishining yirik namoyandasi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniy 973-yil 4-sentabr (362-hijriy 3-zulhijja)da Xorazmning qadimgi markazi Kat shahrida tug‘ilgan. Alloma Xorazmda tug‘ilgani uchun Xorazmiy nisbasi bilan nomlangan. Ammo uning mashhur nisbasi “Beruniy” bo‘lib, bu to‘g‘risida olimlar tomonidan ko‘plab fikrlar bildirilgan. Zahiruddin Bayhaqiy “Tatimma sivanil hikma” asarida “Bayrun” bu shahar nomi degan bo‘lsa, [2], Yoqut Hamaviy “Mo‘jam al-buldon” [3], Abdulkarim Sam‘oniy “Ansob” asarida [4] “Beruniy” so‘zini fors tilidagi “tashqari” kalimasidan kelib chiqqan holda “tashqaridan kelgan”, “begona” deb ta’riflashgan.

Beruniyning bizgacha yetib kelgan asarlarida uning millati haqida hech qanday so‘z yo‘q. Xorazmda fors, turk va so‘g‘d millatlarining mavjudligi bu masalada bashorat qilishni qiyinlashtirsa-da, tadqiqotlar uning turkiy ekanligi ehtimolini kuchaytiradi. Avvalo, Beruniyni arab yoki fors irqi haqidagi yozgan har qanday asariga asoslanib, uni arab yoki eronlik deb hisoblanadigan qarashlar asossizdir.

Beruniy hayotining dastlabki 25 yilini Xorazmda o‘tkazgan, u yerda fiqh,

ilohiyot, grammatika, riyoziyot, falakiyot, tibbiyot va falsafa, fizika va boshqa ilmlar bilan ham shug'ullangan. Beruniy ona tili bo'lgan xorazmiy tilidan tashqari fors, arab yunon, ibroniy va suryoniy tillarini bilgan va 50 yoshida sanskrit tilini o'rgangan.

995-yilda Jayhun daryosining narigi tomonida bo'lgan Ma'muniylar Katga hujum qilib, Afrig'iylarni taxtdan ag'darilgach, boshqaruvi Gurganchda bo'lgan yangi siyosiy hokimiyatga yuzga kelgach, Beruniy Katni tark etadi. Buxoro, Ray, Jiylon, Jurjon kabi shaharlarga qilgan safarlardan so'ng olim 1004-yilda Gurganchga keladi. Ammo, o'z zimmasiga olishga majbur bo'lgan ma'muriy-siyosiy vazifalar uning ilmiy faoliyatiga ma'lum darajada to'sqinlik qilganini ta'kidlaydi.

Sharqda qiyosiy dinshunoslik asoschisi sifatida e'tirof etiladigan Beruniyning "al-Osor al-boqiya an al-qurun al-holiya" (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar), "Kitab fi tahqiq ma li-l-hind min maqulatin, maqbulatin fi-l-aql av marzulatin" (Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi), "Qonuni Mas'udiy" va "at-Tafhim liavaili sinaat at-tanjim" (Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar) nomli asarlarida dinlar tarixi, asoschilari, marosimlari, etiqodlari, bayramlari, ulardagi firqalar shuningdek, qadimgi xalqlarning taqvimlari batafsil yoritilgan.

Abu Rayhon Beruniyga tarixchi sifatida ikkita asosiy xususiyat xos:

a) turli xalqlarning tarixiy, madaniy xizmatini va ayrim shahslar faoliyatini baholashda ularning irqiy, diniy yoki sulolalariga asoslanmay, hamma xalqlarga bir xilda hurmat bilan qarashga asoslangan haddan ziyod obyektivlik;

b) voqea va hodisalarni ayniqsa etnografiya sohasida, solishtirish asosida o'rganishga harakat qilish, turli xalqlar va diniy guruhlar uchun xos bo'lgan o'xshashlik yoki ziddiyatlarni axtarib topish. Beruniydagi bu ikki xususiyat Yaqin Sharq va O'rta Osiyoning o'rta asrdagi bizga ma'lum bo'lgan hamma tarixchilardan ajratib turadi.

Alloma "al-Osor al-boqiya" asarini 1000-yili yozib tugatgan. Asar Jurjon hukmdori Qobus ibn Vashmgirga atab yozilgan. Asarda Yaqin va O'rta Sharq,

birinchi navbatda, Turon xalqlari, qadimgi xorazmliklar, sug‘diylar, turkiylarning e‘tiqodlari haqida tizimli ma‘lumot berilgan. Asarda turli millat va dinlarga oid muhim ma‘lumotlar, payg‘ambarlar va soxta payg‘ambarlar, noto‘g‘ri va buzug‘ ta‘limotlarni targ‘ib qilgan tarixiy shaxslar xususida batafsil zikr qilib o‘tilgan.

Beruniy “Fihrist” nomli asarida “al-Osor al-boqiya”ni qoralama holida qoldirganini va uni keyinroq tuzatishini yozgan, “Qonuni Mas’udiy”da esa avvalgi asarlariga tuzatishlar kiritgan. Muallif “al-Osor al-boqiya”ni yozishda foydalangan manbalarning hech biri bizning davrimizga qadar yetib kelmagan. Shu sababli, aynan qaysi manbalar haqida so‘z yuritilgani ma‘lum emas. Olim foydalangan asarlardan biri Is‘hoq ibn Hunaynga tegishli “Tarix al-atibba” bo‘lishi mumkin.

Beruniy asarning muqaddimasida turli jamiyatlar tomonidan qo‘llanilgan taqvimlar va bu taqvimlarning paydo bo‘lish sabablari, oylar va yillardagi farqlar, xalqlarning o‘z taqvimlarini belgilash sabablari bilan qiziqqanligini qayd etadi. Bayramlar, diniy kunlar va ibodatlar bu taqvimlarga ko‘ra turlicha bo‘lib, ularning ildizlari qadimgi xalqlarga borib taqalishini, o‘tmishdagi asrlarga borib taqaladigan bu masalani hal qilishga qaror qilganini va buni qanday amalga oshirishini tushuntiradi.

Asarning muqaddimasida shunday deydi: *“Olimlardan biri mendan xalqlar tarixi, ular amal qiladigan taqvimlarning boshlanishi, oylar va yillardagi qarama-qarshiliklar, bularning sabablari, xalqlarning mashhur bayramlari, maxsus belgilangan kunlar, millatlarning ba‘zisi amal qilib, ba‘zilari amal qilmaydigan marosimlari haqida so‘radi. Meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o‘qiguvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni topib, bu kitoblarga nisbatan tushunmovchilik qolmaydigan bir asar yozishga da‘vat etdi”* [].

Olim dastlab turli taqvimlarning kun va davrlarini aniqlashga kirishadi. Unda yaratilish, to‘fon, islomgacha bo‘lgan arab tarixi va Xorazm haqida hikoya qilinadi. Shuningdek asar Xorazmshohlarning islomdan oldingi kelib chiqishi va hukmronlik davrlarini ko‘rsatish jihatidan yagona manba hisoblanadi. Beruniy bu asarida o‘zi mashhur bo‘lgan xronologiya sohasiga oid tamoyillarni ham ochib bergan. Muallif xronologik taqqoslashlar orqali dinlar orasidagi farqli nuqtalarni

topadi va dinlar tarixi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan jadvallarni tayyorlagan.

Asar xronologiya va turli xalqlarning taqvimlarga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan birga, Qadimgi So'g'd, Xorazm va Eron madaniyatiga oid juda muhim manba hisoblanadi. Beruniyning ushbu kitobida ham xristian oqimlari tarixi, diniy urf-odatlar va an'analarga oid qimmatli ma'lumotlar kelgan. Kitobda yahudiy taqvimi haqida ham batafsil ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, namoz vaqtlari, Furoqlid, Zulqarnayn, Ya'juj va Ma'juj va soxta payg'ambarlardan tortib, turli dinlar, mintaqalar va shaxslar haqidagi ma'lumotlar, xronologik jadvallar va qiyoslarga oid turli xabarlar mavjud.

Beruniy ushbu asarni ahli kitoblar, turli din arboblari va vakillarining isbot uchun keltirgan turli dalillarini qiyoslab, yuzaga kelgan ilmiy xulosaga tayangan holda yozgan. "Men ularning o'zimgacha yetib kelgan gaplarini hikoya qilaman. Kuchim yetganicha buzilganlarini tuzatishga, yolg'onlarni bekor qilishga, rostni aniqlashga urinaman", – deydi [5]. Bu olimning ilmiy xolisligidan darak beradi.

Diniy mavzularga oid ixtiloflarni keltirar ekan, Beruniy avvalo ixtiloflarning yuzaga kelish sabablarini ko'rsatadi va imkon darajasida yechim va tuzatishlarni kiritib o'tadi. Jumladan, yahudiylarning muqaddas manbasi Tavrotning uch nusxasida insoniyatning paydo bo'lgan vaqti, yahudiylarning Misrga kelib o'rinishi sanasi turlicha ko'rsatilgani, payg'ambarlarning kelishi haqidagi turli dinlardagi bir-biriga zid bo'lgan muddatlar bilan bog'liq masalalarning deyarli barchasiga hisob, mantiq va qiyos usuli bilan yechim topishga harakat qilgan.

Asarda sobiiylar, ularning turli butlari, bayramlari va bayramlarga oid qoidalari tilga olinadi. Uning fikricha, haqiqiy sobiiylar Buxtunnasr tomonidan Quddusdan Bobilga olib ketilgan yahudiylarning qoldiqlaridir. Ular zardushtiylik ta'sirida bo'lgan. Beruniyning fikricha, musulmonlar sobiiylarga alohida qiziqish bildiradilar. Ular nasroniylar va yahudiylar qatori ahli kitobdirlar.

U haqiqiy sobiiylarning harroniylar toifasini ham zikr qilgan. *"Harroniya deb nomlangan guruh hindlarning soxta payg'ambari Budhasaf bilan bog'langan va ular samoviy jismlarga sig'inadilar. Bular aslida sobiiylar emas, balki samoviy jismlarga sig'inadiganlar bo'lib, ular butparastdirlar. Harroniylar aslida qadimgi*

yunon dinining izdoshlaridir. Yunonlar ham faylasuflarini payg‘ambarlar deb hisoblashgan. Bu harroniylar hijriy 224-yilda zimmiy sifatida Abbosiylar hukmronligi ostiga o‘tgan. Haqiqiy sobiiylar yahudiylar edi. Damashq masjidi sobiiylarga tegishli bo‘lib, keyinchalik yahudiylarning sinagogasiga, so‘ngra cherkovga, keyin esa masjidga aylandi. Ular yahudiy va zardushtiylarning bayramlarini nishonlaydilar” [4].

Beruniy tarixiy tadqiqotchi sifatida sharq xalqlari etnografiyasini yoritib borgan va o‘zining etnograf ekanini “Hindiston” asarida yaqqol namoyish qilgan. “Hindiston”ning to‘liq nomi “Tahqiq ma lil hind min ma’qulatin maqbulatin fi-l-aql av marzulatin” (Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash) bo‘lib, 1030-yil yozib tugatilgan. Bu kitobda Hindiston xalqlari tarixining turli sohalari (aniq fanlar, adabiyot, falsafa, elshunoslik (etnografiya), geografiya, demografiya, qonunlari va urf-odatlar, dini, diniy rivoyatlari, hind yozuvining turlari, e’tiqod usullari haqida batafsil ma’lumotlar berilgan.

Beruniy hindlarning urf-odatlarini oilaviy va boshqa munosabatlarini islomgacha bo‘lgan arablar, eronliklar hamda boshqa xalqlardagi huddi shunday urf-odatlar bilan taqqoslaydi. Beruniyning “Hindiston”i o‘rta asrdagi hind madaniyatini bilish uchun tengi yo‘q durdona, bebaho xazina hisoblanadi. Beruniyning “Hindiston” asarini 20 yil davomida ilmiy jihatdan tadqiq qilgan Edvard Zahau 1888-yil Londonda ingliz tiliga tarjima qilgan. Bu kitob 1963-yil rus tilida, 1965 va 2022-yillarda esa o‘zbek tilida nashr etilgan.

Abu Rayhon Beruniy Hindiston haqida gapirar ekan, har bir hindlarga xos bo‘lgan narsalarni bayon qilishda juda ehtiyotkorona munosabatda bo‘lgan. O‘zi duch kelgan masalalarga aqliy yondashgan. Hindlar uchun tabiiy, boshqalar uchun g‘ayri tabiiy bo‘lgan narsalarga ob’ektiv munosabat bildirib, ularni hind millatining urf-odatlaridan kelib chiqqan holda sharhlagan. *“Bu kitob – deydi, muallif, – bahslashish va tortishish kitobi emas. Xusumatchilarning xujjatlarini keltirmayman, haqdan og‘ishganlarga qarshilik bildirmayman. Bu faqatgina bayon qilish kitobi xolos. Shuning uchun, men bu kitobda hindlarning so‘zlarini o‘z xolicha yozaman” [6].*

Beruniy hind falsafasiga oid ko'p yodgorliklarni o'rganar ekan, ulardan o'zgalarning ham bahra olish boshqalar ham mutolaa qilishga muyassar bo'lish uchun bir qancha hindcha asarlarni arab tiliga tarjima qilganini ham ta'kidlaydi. Bu haqda olim shunday deydi: "Men hindlarning ikki kitobini arab tiliga tarjima qilgan edim. Ularning birisi Koinotning boshlanishi va mavjudot tavsifi haqida bo'lib "Sankhya" deb ataladi. Ikkinchisi jonni badan qafasidan qutqazish bo'lib, "Patanjali" nomi bilan mashhur. Bu ikki kitobda hindlarning shariat hukmlarigina emas, balki e'tiqod asoslarining ko'pligi bayon qilingan. Xudo xoxlasa bu kitobim hindlarning e'tiqod va shariatlarini bayon qilishida haligi ikki kitob va ulardan boshqa kitoblarning o'rniga o'tar, talabga to'la javob berap degan umiddaman" [6].

Xulosa

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, dinlarning paydo bo'lishi, an'analari, marosimlari, taqvimlari va muqaddas manbalari to'g'risida Beruniyning asarlari muhim sanaladi. Bundan tashqari olimning dinlarga bo'lgan tolerant munosabati ham bugun dunyoning turli burchaklarida ko'zga tashlanayotgan dinlararo va millatlararo nizolarni oldini olishda dolzarb hisoblanadi. Alloma dinlar va e'tiqodlarni o'rganishda xolislik prinsipiga qat'iy amal qilgan. Boshqa e'tiqodlarga nisbatan bag'rikenglik tamoyilini qo'llagan. O'zga din vakillarini tanqid qilmagan. Bu yondashuv, din va e'tiqodlarning fundamental asoslarini o'rganishda, ularning tarixiy asoslarini yoritishda aniqlikni ta'minlaydi hamda diniy bag'rikenglik tamoyillari rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan, Abu Rayhon Beruniy e'tiqodlarni yoritishda avvalo mantiqqa tayangan va ularning islom ta'limotiga zid aqidalarini ma'lum uslub doirasidagina ko'rib chiqqan. Bir so'z bilan aytganda, olimning qoldirib ketgan ilmiy meroslari dinlar tarixini xolis o'rganishda, muqaddas kitoblari bilan tanishishda, o'zga din va e'tiqod vakillariga bag'rikeng munosabatda bo'lishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom

ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz – Toshkent: O'zbekiston, 2017.

- 2.** Zahiruddin Bayhaqiy. Tatimma sivan al-hikma. – Bayrut: Dor al-fikr, 1994.
- 3.** Yoqut Hamaviy. Mu'jam al-buldon. – Bayrut: Dor as-sadr, 2006. – J. 4.
- 4.** Abdulkarim Sam'oniy. Ansob. – Bayrut: Dor al kutub al-ilmiyya, 1998.
- 5.** Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
- 6.** Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.